XALQ DEPUTATLARI QAMASHI TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2022 - yil 27 - iyun VI-51-68-4-58-K/22 Qamashi tuman hokimligi

Qamashi tumanidagi geografik obyektlarga nom berish va qayta nomlash to‘g‘risida

Fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari aholi punktlarining tarkibiy qismlari bo‘lgan nomsiz mahalla va istirohat bog‘lariga nom berish hamda mahallani qayta nomlash to‘g‘risidagi Qamashi tuman hokimligiga kiritgan iltimosnoma xati, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasining 2021-yil 30-noyabrdagi 10-son va 2022-yil 23-fevraldagi 2-son yig‘ilish bayonlari, Qamashi tuman hokimining aholi punktlarining tarkibiy qismlariga nom berish to‘g‘risida viloyat komissiyasiga 2022-yil 18-martdagi taklifi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2022-yil 12-apreldagi 08-02849-son xulosasi va O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni 10-moddasi hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan Xalq deputatlari Qamashi tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2022-yil 12-apreldagi 08-02849-son xulosasiga asosan Qamashi tuman hokimining aholi punktlarining tarkibiy qismlari bo‘lgan 4 ta geografik obyektni nomlash va qayta nomlash to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

2. Qamashi tumanida nom berilayotgan va qayta nomlanayotgan geografik obyektlarning ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Qamashi tuman hokimi o‘rinbosari, Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (v.v.b Bekmurzayev)ga bir hafta muddatda tuman hududidagi nomlari o‘zgargan geografik obyektlarning nomlarini zamonaviy ko‘rinishda peshlavhalarga yozib o‘rnatish vazifasi yuklansin.

4. Tumandagi tegishli mahalla fuqarolari yig‘inlari raislariga aholi punktlarining tarkibiy qismlari bo‘lgan 4 ta geografik obyektni nomlash va qayta nomlash to‘g‘risidagi taklifi ma’qullanganligi munosabati bilan aholi o‘rtasida keng tashviqot-targ‘ibot ishlarini o‘tkazish tavsiya etilsin.

5. Tuman ichki ishlar bo‘limi (Meyliyev) nom berilgan va qayta nomlangan hududda yashovchi aholining fuqarolik pasportlari berilayotganda mazkur holatga alohida e’tibor qaratsin.

6. Ushbu qaror “Qamashi” gazetasida e’lon qilinsin.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari B.Haydarov zimmasiga yuklansin.

8. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Kengash raisi **B.Tog‘ayev**

Xalq deputatlari Qamashi tuman
Kengashining
2022 yil 27 iyundagi
VI-51-68-4-58-K/22-son qaroriga
1-ilova

Qamashi tumanida nom berilayotgan va qayta nomlanayotgan geografik obyektlarning RO‘YXATI

№	Obyekt turi	Obyekt joylashgan manzil	№	Obyekt nomi	№	Taklif qilingan nom	Ekspert komissiyasining xulosasi
1.	Mahalla	Nagahon aholi punkti	**1.**	Savsantepa (qayta nomlash)	**1.**	Tinchlik	Tinchlik-Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
2.	Mahalla	Oqrabot aholi punkti	**2.**	Nomsiz mahalla	**2.**	Oqrabot	Oqrabot-Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
3.	Istirohat bog‘i	Zafar mahallasi	**3.**	Nomsiz istirohat bog‘i	**3.**	Yangi avlod	Yangi avlod-Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
4.	Istirohat bog‘i	O‘zbekiston mahallasi	**4.**	Nomsiz istirohat bog‘i	**4.**	Mustaqillik	Mustaqillik-Qonun hujjatlari talablariga muvofiq